

**KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).**

**ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ РАЗВИТИЯ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В КОНТЕКСТЕ
СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ).**

**WAYS TO IMPROVE THE DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM IN
POVERTY REDUCTION (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION).**

Sayfulloyev Azizbek Anvarjon o'g'li

*Buxoro Davlat Texnika Universiteti Xizmat Ko'rsatish va Raqamlashtirish fakulteti
Iqtisodiyot va menejment kafedrası Birinchi bosqich bakalavri*

Nabiyeva Feruza Ravshanovna

*Buxoro Davlat Texnika Universiteti Xizmat Ko'rsatish va Raqamlashtirish fakulteti
Iqtisodiyot va menejment kafedrası Ikkinchi bosqich bakalavri*

Annotatsiya: *Jahonda turizm sohasini rivojlantirishning samaradorligini innovatsion omillarga ko'ra oshirish, sohaning aholi bandligiga ta'sirini kuchaytirish va istiqbol tadbirlarini asoslashga yo'naltirilgan tadqiqotlar ustuvor darajada tashkil qilinmoqda. Bu borada "eko-turizm", "ziyosat turizmi", "ta'lim turizmlari ham yo'lga qoyilgan. Ushbu maqolani yozishdan maqsad asosan Buxoro viloyatining ichki turizmini o'rganib chiqish ya'ni turizmni rivojlantirish orqali kambag'allik omillarini keskin pasaytirish*

Аннотация: *В мире в приоритетном порядке организуются исследования, направленные на повышение эффективности развития туризма на основе инновационных факторов, усиление влияния отрасли на занятость и обоснование будущих мер. В этой связи были также запущены такие направления, как «экотуризм», «паломнический туризм», «образовательный туризм». Цель данной статьи – изучение внутреннего туризма в Бухарской области, то есть резкое снижение факторов бедности посредством развития туризма.*

Annotation: *In the world, research is being organized on a priority basis to increase the efficiency of tourism development based on innovative factors, to strengthen the impact of the industry on employment, and to substantiate future measures. In this regard, "eco-tourism", "pilgrimage tourism", "educational tourism" have also been launched. The purpose of writing this article is mainly to study domestic tourism in the Bukhara region, that is, to sharply reduce poverty factors through the development of tourism*

Kalit so'zlar: *taraqqiyot strategiyasi, turizmni jadal rivojlantirish, yangi ishchi o'rinlarini yaratish, xususiy investitsiyalar, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi*

Bugungi globallashuv sharoitda turizm sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Turizm sohasining rivojlanishi o'z navbatida turizmga turdosh bo'lgan bir nechta sohalarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, turizm sohasining rivojlanishi ishsizlik muammosini bartaraf etishda yordam beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga tashrif buyurgan har 20 ta turist 1 ta bevosita turizm sohasida va 2 ta turizmga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yangi ishchi o'rinlarining ochilishiga yordam beradi. Dunyoda ish bilan band aholining har o'ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston-2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha maqsad va vazifalar belgilangan. Jumladan, 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada mehmonlar uchun mo'ljallangan o'rinlar sonini kamida 2 barobar oshirish, turizm mahallalari sonini 175 taga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish belgilangan (Farmon, 2023). Bundan tashqari, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bobi, 35-maqсадida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan bo'lib, bu asosida:

- to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish;

Bundagi tadqiqot va ko'rsatkichlar shuni isbotlaydiki turizm sohasi keng ko'lamli ya'ni keng tarmoqli sohalardan biri bo'lib bu soha yillar davomida jadal rivojlanmoqda.

Ichki turizm — bu mamlakat fuqarolarining o'z ichki sayohatlarini rag'batlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish mexanizmi. Turizm tarmoqlarining rivojlanishi:

- mahalliy daromadlar oshishiga

- mintaqaviy ish o'rinlari yaratishga

- mahalliy biznesni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi

- shu bilan kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Buxoro viloyati tarixiy merosi, qadimiy shahar markazi, ziyorat maskanlari va tabiiy hududlari bilan ichki turizm uchun katta salohiyatga ega.

- Buxoro viloyatida ichki turizmning hozirgi holati

Salohiyat va resurslartarixiy merosi — Qadimiy shahar, madrasalar, masjidlar — mahalliy sayyohlar uchun asosiy omillar. Mehmonxona infratuzilmasi kengaymoqda: yangi mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, xostellar tashkil etilmoqda, sayyohlar

oqimi ortmoqda. Turizm qishloqlari (masalan, O'ba qishlog'i) ochilib, yangi turlar taklif qilinmoqda.

Kamchiliklar

Tabiiy va qishloq joylarda xizmat sifati va infraqurilmalar yetarli emas. Marketing va targ'ibot ishlari cheklangan .Innovatsion xizmatlar, raqamli yechimlar kam qo'llanilmoqda.

Buxoro viloyati turizm sohasi bo'yicha keskin kam,bag'alik darajasidan chiqmoqda ya'ni yechim topmoqda .

Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni sezilarli darajada oshgan. Masalan, viloyatga ikki yarim million atrofida sayyoh kelgan va turistlar uchun xizmatlar eksportidan 2,3 trillion so'm daromad olingan. Bu xizmatlar ichiga mehmonxona, restoran, madaniy va ko'ngilochar xizmatlar kiradi.

Bu shuni anglatadiki, turizm xizmatlari orqali mintaqaviy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri pul oqimi kirib, mahalliy bizneslar (mehmonxonalar, kafelar, hunarmandchilik do'konlari) faoliyati ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida aholi daromadlarini oshirishga yordam beradi.

Buxoro viloyatida turizm orqali kambag'allikni qisqartirish		
Yo'nalish	Amalga oshirilayotgan ishlar	Aholi uchun natija
 Mehmonxonalar va mehmon uylari	 Xostel va oilaviy mehmon uylari ochilmoqda	
 Xizmat ko'rsatish sohasi	 Kafelar, choyxonalar ko'paymoqda	
	 Hunarmandchilik mahsulotlari sotilmoqda	
 Gid va ekskursiya xizmatlari	 Yoshlar gid bo'lib ishlamoqda	
 Transport xizmati	 Taksi, turist tashish xizmatlari rivojlanmoqda	
 Qishloq turizmi	 Agroturizm qishloqlari rivojlanmoqda	
	 Dehqon va fermerlarning daromadi ko'paymoqda	

Xulosa

Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirish kambag'allikni qisqartirishning samarali va barqaror mexanizmlaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Viloyatning boy tarixiy-madaniy merosi, ziyorat maskanlari, hunarmandchilik an'analari va qishloq xo'jaligi salohiyati ichki turizmni kengaytirish uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlashga oid farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-martdagi "Ichki turizmni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-192-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari — www.uzbektourism.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari — www.stat.uz
5. UZA — O'zbekiston Milliy axborot agentligi materiallari — www.uza.uz
Kun.uz axborot portalini — www.kun.uz
6. Yashil iqtisodiyot taraqqiyoti ilmiy jurnali, 2023–2024-yillar sonlari.
OpenScience.uz ilmiy platformasi — turizm va hududiy rivojlanish bo'yicha maqolalar.
Buxoro viloyati hokimligi rasmiy axborotlari — www.bukhara.uz
M. Axmedov, N. Rahimov. "Turizm iqtisodiyoti", o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021.
S. Karimov. "Hududiy iqtisodiyot va turizm", ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 20